

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ АХБОРОТНОМАСИ

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

**2023-11/4
Вестник Хорезмской академии Маъмуна
Издается с 2006 года**

Хива-2023

Бош муҳаррир:*Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.***Бош муҳаррир ўринбосари:***Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.***Таҳрир ҳайати:**

<i>Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.</i>	<i>Пазилов Абдуваеит, б.ф.д., проф.</i>
<i>Абдуллаева Муборак Махмусовна, б.ф.д., проф.</i>	<i>Раззақова Сурайё Раззоқовна, к.ф.ф.д., доц.</i>
<i>Абдуҳалимов Баҳром Абдурахимович, т.ф.д., проф.</i>	<i>Рахимов Раҳим Атажанович, т.ф.д., проф.</i>
<i>Азимова Гулчехра Азизовна, т.ф.д., проф.</i>	<i>Рахимов Матназар Шомуротович, б.ф.д., проф.</i>
<i>Аимбетов Нағмет Қаллиев, и.ф.д., акад.</i>	<i>Рўзметов Бахтияр, и.ф.д., проф.</i>
<i>Аметов Якуб Идрисович, д.б.н., проф.</i>	<i>Садуллаев Азимбой, ф-м.ф.д., акад.</i>
<i>Бабаджанов Хушнуд, ф.ф.н., проф.</i>	<i>Салаев Санъатбек Қомилов, и.ф.д., проф.</i>
<i>Бекчанов Даврон Жуманазарович, к.ф.д.</i>	<i>Сапарбаева Гуландам Машираповна, ф.ф.ф.д.</i>
<i>Буриев Хасан Чутбаевич, б.ф.д., проф.</i>	<i>Сапаров Қаландар Абдуллаевич, б.ф.д., проф.</i>
<i>Ганджаева Лола Атаназаровна, б.ф.д., к.и.х.</i>	<i>Сафаров Алишер Қаримджанович, б.ф.д., доц.</i>
<i>Давлетов Санжар Ражабович, тар.ф.д.</i>	<i>Сирожов Ойбек Очилов, с.ф.д., проф.</i>
<i>Дурдиева Гавҳар Салаевна, арх.ф.д.</i>	<i>Сотилов Гойишназар, к/х.ф.д., проф.</i>
<i>Ибрагимов Бахтиёр Тўлағанович, к.ф.д., акад.</i>	<i>Тожибаев Қолмўжон Шаробитдинов, б.ф.д., академик</i>
<i>Исмаилов Исҳақжон Отабаевич, ф.ф.н., доц.</i>	<i>Холлиев Аскар Эргашевич, б.ф.д., проф.</i>
<i>Жуманиёзов Зоҳид Отабаевич, ф.ф.н., доц.</i>	<i>Холматов Бахтиёр Рустамович, б.ф.д.</i>
<i>Жуманов Мурат Артебаевич, д.б.н., проф.</i>	<i>Чўпонов Отаназар Отожонович, ф.ф.д., доц.</i>
<i>Қадирова Шаҳноза Абдухалиловна, к.ф.д., проф.</i>	<i>Шакарбоев Эркин Бердиқулов, б.ф.д., проф.</i>
<i>Қаримов Улғубек Темирбаевич, DSc</i>	<i>Эрматова Жамила Исмаиловна, ф.ф.н., доц.</i>
<i>Қурбанбаев Илҳом Жуманазарович, б.ф.д., проф.</i>	<i>Эничанов Рузўмбой Абдуллаевич, б.ф.д., доц.</i>
<i>Қурбанова Саида Бекчановна, ф.ф.н., доц.</i>	<i>Ўразбоев Ғайрат Ўразлиевич, ф-м.ф.д.</i>
<i>Қутлиев Учқун Отобаевич, ф-м.ф.д.</i>	<i>Ўразбоев Абдулла Дурдиевич, ф.ф.д.</i>
<i>Ламерс Жон, к/х.ф.д., проф.</i>	<i>Ҳажиева Мақсуда Султоновна, фал.ф.д.</i>
<i>Майкл С. Энжел, б.ф.д., проф.</i>	<i>Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.</i>
<i>Махмудов Рауфжон Баходирович, ф.ф.д., к.и.х.</i>	<i>Худайберганаева Дурдона Сидиқовна, ф.ф.д.</i>
<i>Мирзаев Сирожиддин Зайниевич, ф-м.ф.д., проф.</i>	<i>Худойберганаев Ойбек Икромович, PhD, к.и.х.</i>
<i>Мирзаева Гулнара Саидарифовна, б.ф.д.</i>	

Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№11/4 (108), Хоразм Маъмун академияси, 2023 й. – 248 б. – Босма нашрнинг электрон варианты - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Муассис: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси минтақавий бўлими – Хоразм Маъмун академияси

МУНДАРИЖА ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Abdullaeva R., Marufova Yu.A., Mukhammadjonova M.D. Comparative Analysis of Phraseological Units with a Human Component in English, Russian, and Uzbek Languages: A Structural-semantic Perspective	5
Ahmadjonova O.A. Rahbar obrazining badiiy tasviri	8
Akbaraliyeva X.Sh. O'zbek va ingliz maqollarida tana a'zolarining ishlatilishi	11
Alimov P. Adabiyotda badiiy obraz va xarakter	14
Allyeva S.A. Geonimlarning jahon tilshunosligida o'rganilishi va nazariy masalalari	17
Aminova D. Phenomenon of polysemy in english military vocabulary	19
Aminova D. Systematization of military terminology	20
Bazarova X.E. Asqar Mahkam ruboiylari	22
Bobojonova X.K. O'zbek tilidagi o'zlashmalarning ayrim xususiyatlari	26
Boltaboyeva N.M. Toponimik leksikografiya tilning leksik-semantik tizimining muhim yo'nalishlari sifatida	29
Boltayeva G.Sh. Muxammas janri genezisida xalq og'zaki ijodining o'rni	32
Boltayeva G.Sh. Tab'i xud muxammaslarda poetik shakl masalasi	34
Dalleva M.X. Conceptual analysis of polysemy in terminology	37
Dalleva M.X. Distinguishing features of terminologization in modern english	39
Dalleva M.X. Polysemy in terminology	41
Djalilova Z.B., Yuldashova N.O. Badiiy adabiyotlarda realiyalar va ularning tarjima qilish usullari	43
Egamnazarova Z.X. Rielorlik faoliyatiga oid terminlarning bir tili lug'atlarda berilishi masalalari	47
Jumaniyozov Sh. Uzlaksiz ta'lim tizimi adabiyot darslarida badiiy asar tahlilining muhim jihati	50
G'afforov A. Yassaviy ijodida tasavvufiy istiloh (atama)larning qo'llanilishi	53
Ganiyeva O.X. AQSH hikoyachiligi negizlari	56
Gavharoy Isroiljon qizi Turizm terminlaridan muloqot diskursida foydalanishdagi muammo va yechimlar	59
Hakimova Z.T. Lexicographic Aspects of Sewing Terms: A Stitch in Language	62
Ibragimova M.A. Nutqiy aktlar nazariyasi va yozma nutq atamasiga doir	64
Israelova M.N. The role and significance of the science of latin and medical terminology in medicine	68
Kilichev B.E. Buxoro viloyatining gidrotoponimlari	70
Kuchkarov T.O., Parmonova N.A. "Treasure", "Xazina" tushunchalarining milliy-madaniy tipologik xususiyatlari	74
Latipov A.A. O'zbek tilida yakuniy faza semantikasi va uning ifodalanishi	77
Madraximova R.Sh. Ingliz tilida ma'danlarga aloqador onomastik birliklarning semantikasi va etimologiyasi	81
Mamatqulova Sh. O'zbek va ingliz tillarida fidoyilik konseptini ifodalovchi leksemalar	83
Masharipov J.A. Fan va texnika terminlarini standartlashtirishga qo'yiladigan talablar	86
Muhammadiyev A. Tarix va zamon haqiqatlarining she'riyatdagi talqini	88
Mustafoeva S.Kh. Semantic and structural grouping of riddles in english	95
Nazarova S. Ingliz va o'zbek tillarida politaksemalarning semantik turlari qiyosiy tahlili	98
Omonov T. Terminology and its effect on scientific and technical communication	100
Omonov T. The semantic features of insurance terms in english	103
Pirnazarova M. Shoir ijodida tun timsoli	105
Qahharova D.A. Bobur lirikasida ko'ngil timsoli va badiiy san'atlar	109
Qodirova Sh.B. Nemis tilida tabiat hodisalarini ifodalovchi otlarning leksik-semantik xususiyatlari	114
Radjabova G. A corpus-based analysis of logical connectors in academic writing	116
Raximova G.Yu. Reduplikatsiya faol lingvistik jarayon sifatida	118
Sabirova D. Erkin A'zamning "Shovqin" romanida polifonik nutq ko'rinishi	121
Sadullayev F.B. Badiiy adabiyotda ruhiy tasvir va uning takomili	124
Safoyeva S.N. Badiiy tarjima kommunikativ faoliyat turi sifatida	126
Sapayeva B.Q. Birikma shaklidagi gemeronimlarning ko'rinishlari	128
Satibaldiev E. The interplay of language dominance, cultural nuances, and domain expertise in translation quality	132
Satibaldieva N. The dynamic evolution of language	134
Sattarov F. Ingliz tilidagi bolalar adabiyotining yangi bosqichga chiqishi	136

Saydalieva A.E. Irony in literature: an exploration of its functions and effects	139
Sayidirakhimova D.S. Controversial issues in the research of similar adverbial words in the kyrgyz and uzbeki languages	142
Shamsiddinova S.B. Ilon kultining genezisi va uning "Gilgamish" eposida tutgan o'rni	147
Shamuradova N.M. Causality and independent word groups expressing causality	150
Sharifov S.Z. Xarakterni yoritishda portret va peyzajning roli	154
Shodlyeva A. Propozitsiyaning ilmiy talqini	157
Sulaymonova N.A. "Zarbulmasal" asarida gulxaniyning axloqiy qarashlari	159
Suvanova R.A. Erkin Vohidov she'riyatida qo'llanilgan badiiy tasvir vositalarining funksional-semantik xususiyatlari	162
To'xtaboeva M. Botu she'riyatida sintaktik o'ziga xosliklar va ularning badiiyati	165
Turdimurodov S.E. Izohli lug'atlarda evfemik darajalanish xususida	168
Xolmuxamedov B. O'zbek tilida yaratilgan chastotali lug'atlar xususida	171
Xushboqov Q.Sh. "O'zbek tilida "tug'ilish" va "o'lim" tushunchalarining lingvistik tadqiqi	174
Yuldashev A.G., Mukhammadjonova M.D., Marufova Yu.A. Categorization of English toponyms	177
Yuldasheva D.N. Antropotsentrik paradigmada sukut hodisasi	181
Zakirova Kh.A. Discourse analysis of urban planning terminology	185
Абдувалиева Н.А. Алишер Навоий газалларида қўлланган ўзлашма сўзларнинг таҳлили масаласи	187
Абдурахманова Х.Р. Научно-теоретическое изучение пословиц в лингвистике	191
Алланазарова С.Х. Лингвистик жиҳатдан бадий онوماстикасида атоқли отлар хусусиятининг мобиллашуви	195
Бендер Р. Мастерство писателя в стилевой основе романа «Тихий Дон»	197
Исmoilova M.I. Ўзбек ва инглиз тилларида қарашлилик-тегишлиликнинг семантик таркиби	200
Кабилlova C.A. Эвфемизмларнинг оммавий ахборот воситаларида қўлланилиши	203
Кенжаева П. Замонавий турк ҳикоячилигига Шарқ мумтоз адабиёти дурдоналарининг таъсири	206
Қўлдошов Ў.Ў. Конверсив бирликларнинг функционал-семантик хусусиятлари	210
Махмудов Р. Ўзбек тилидаги жуфт ва қисқартма сўз шаклидаги энг янги сўзлар	214
Насирова М.К. Смысловой аспект и появление понятия «концепт» в лингвокультурологии	218
Насриева Г. Назар Эшонкул асарларида драматик ва трагик образлар тизими	221
Олимова Г.М. "Тоҳир ва Зухра" достонидаги мумтоз жанрларда шеърини санъатларнинг ўрни	223
Очилова Н. Томас Майн Риднинг "Бошсиз чавандоз" асарида "от" образи таҳлили	227
Панжиев Н.П. Анализ структурно-статистических свойств согласных кластеров в узбекском языке	230
Рахматова Д.П. Достонларда эпик клише ва формулаларнинг ўрни	235
Сейтназарова И.Э. Тилеўберган Жумуратов асарларида бадий воситаларнинг услубий қўлланиши	237
Суярова А.И. Роль журналистики Шарофа Рашидова в культурной жизни	242
Умбетова Н.Ж. Изображение национального характера в творчестве А.Н.Толстого	245

argumentlarning ishtiroki predikatning mazmunan kengligini ta'minlashga xizmat qiladi. Demak, propositsiyani semantik va pragmatik jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, «Ifoda tarkibidagi propositsiyalar so'zlovchining subyektiv munosabati bilan bog'lanmasa, bu propositsiya semantikaning obyekti hisoblanadi, so'zlovchining subyektiv munosabatini aks ettiruvchi propositsiya lingvistik pragmatikaning obyekti sanaladi»[9;63].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов. Издательство ООО «Пилигрим». 2010. С 290
2. Общее языкознание. Внутренняя структура языка. (под. ред. Б.А.Серебрянников) – М.: Наука, 1972. – Б. 298
3. Нурмонов А., Махмудов Н., Ахмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Тошкент: Фан, 1992. – Б. 28
4. Москальская О.И. Проблемы системного описания синтаксиса. – М.: Высшая школа, 1981. – С. 10.
5. Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б.12.
6. Рассел Б. О пропозициях: что они собой представляют и каким образом обозначают. – С. 21.
7. Лингвистический энциклопедический словарь. М., 1990, с.401.
8. Ҳақимов М. Ўзбек тилида матиннинг прагматик талқини: Филол.фан.докт.дисс. – Тошкент, 2001 – 117-бет.
9. Ҳақимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: “Akademnashr”, 2013. – 155-бет.
10. Сусов И.П. Введение в теоретическое языкознание. Электронный учебник. – Тверь, 1999. – С.10.
11. Васильев Л.М. Семантика русского глагола. – М.,1987. – С.13.
12. Абдусаматов Р. Қўшма гапларни ўқитиш муаммоларига доир // Тил ва адабиёт таълими – Тошкент, – 1999. №3. 26-бет.
13. Панкрац Ю.Г. Пропозициональные структуры и их роль в формировании языковых единиц разных уровней. – Минск, 1992. С. 15.
14. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. • 93-бет.
15. Усмонова Х., Ўзбек тилидаги гап бўлақларининг позиция структураси: Филол. фанлари д-ри ... дис. автореф. – Тошкент, 2009. – Б. 16
16. Давлатова Р. Пропозиция ва унинг ўзбек тилида фойдаланиши: Филол. фан. ном. дис. – Тошкент, 2009. – Б.16.

UO'K 83

“ZARBULMASAL” ASARIDA GULXANIYNING AXLOQIY QARASHLARI

N.A.Sulaymonova, f.f.n., dots., Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent

Annotatsiya. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixida axloqiy qarashlarning tavsifi jamiyat hayotida mavjud salbiy jihatlar va illatlarni ochib beruvchi o'ziga xos usul hisoblanadi. Mazkur maqolada Gulxaniy qalamiga mansub bo'lgan “Zarbulmasal” asarida berilgan axloqiy qarashlar va g'oyalar tahlil qilinadi. Tahlil orqali ushbu asarning didaktik jihatlari yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Qolaversa, insonlarda barkamollik va komillik kabi xislatlarni shakllantirishda “Zarbulmasal” asarining muhim ahamiyati ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: o'zbek mumtoz adabiyoti, adabiy meros, masallar, Gulxaniy, “Zarbulmasal” asari, Gulxaniyning axloqiy qarashlari, xalq maqollari.

Аннотация. В истории узбекской классической литературы описание нравственных взглядов является уникальным методом, раскрывающим негативные стороны и пороки в жизни общества. В данной статье анализируются моральные взгляды и идеи, изложенные в произведении «Зарбулмасал», автором которого является Гулхани. Благодаря анализу дидактические аспекты данного произведения становятся более очевидными. Кроме того, показано важное значение произведения «Зарбулмасал» в формировании у людей таких качеств, как совершенство.

Ключевые слова: узбекская классическая литература, литературное наследие, басни, Гулхани, «Зарбулмасал», нравственные воззрения Гулхани, народные пословицы.

Abstract. In the history of Uzbek classical literature, the description of moral views is a unique method that reveals the negative aspects and vices in the life of society. This article analyzes the moral views and ideas given in “Zarbulmasal” written by Gulkhani. Through the analysis, the didactic aspects of this work become more evident. In addition, the importance of the work “Zarbulmasal” in the formation of qualities such as perfection in people has been shown.

Key words: *Uzbek classical literature, literary heritage, parables, Gulkhani, "Zarbulmasal", moral views of Gulkhani, folk proverbs.*

O'zbek mumtoz adabiyotida samarali ijod qilgan, o'zining durdona asarlari, she'r va hikoyalari, dostonlari bilan munosib o'rin egallagan ijodkorlar talaygina. Ularnig hayot yo'li, ijod namunalari hozirgacha o'rganilib, hayotga tatbiq etib kelinmoqda. Ayniqsa, ulardan ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarda foydalanish tarbiyaning milliy tarixiy negizlarini mustahkamlashning muhim omili sifatida ahamiyatlidir.

Adabiyotimiz tarixida o'ziga xos maktab yaratgan, mohir san'atkorlardan biri – lirik va satirik shoir, o'tkir askiyachi va masalnavis yozuvchi Gulxaniy XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlarida yashab ijod etgan va bu davr o'zbek adabiyotida o'ziga xos o'ringa ega ijodkordir. Uning asl ismi sharifi Muhammad Sharif bo'lib, Gulxaniy esa uning adabiy taxallusidir (Gulxaniy hamma narsani biluvchi shoirdir. U faqat gulxan emas, gulshandan ham chiroylroqdir. Devona fe'lligi, olov tabiatliligi, iste'dodliligi, o'tkir fikrliligi tufayli o'ziga shunday taxallus tanlagan). Gulxaniyning hayoti va ijodi to'g'risida to'liqroq ma'lumot olish uchun Qo'qon xoni Umarxon saroyida shoirlar boshlig'i bo'lgan Abul Karim Fazliy tomonidan 1821-yilda tuzilgan "Majmuai shoiron" ("Shoirlar majmuasi") nomli tazkiraga murojaat qilish mumkin. mazkur tazkira orqali Gulxaniy qalamiga mansub 12 g'azal, 1 ta qasida va "Zarbulmasal" asari bizgacha yetib kelgan.

Gulxaniy o'zining zo'r iste'dodi, tajribasi, hayotga haqqoniy qaray bilishi tufayli xalqqa yaqin yozuvchi sifatida ko'zga tashlanadi. Adib yoshligida she'riyatga oid ko'plab kitoblar o'qiydi, xalq og'zaki ijodini berilib o'rganadi va asta-sekin she'r mashq qilishni boshlaydi. Ayniqsa, ga'riblik turkumidagi ruboiy va to'rtliklari bilan el og'ziga tushadi. U o'zbekcha she'rlariga Gulxaniy, tojik tilidagilariga esa Jurvat taxallusini ishlatadi.

Gulxaniy o'z asarlarida xalq og'zaki ijodi namunalaridan tashqari "Kalila va Dimna"dan, Firdavsiy, Jomiy, Hofiz Sheroziy, Alisher Navoiy kabi ulug' shoirlarning asarlaridan munosib foydalangan holda zamonasida tengsiz deb topilgan "Zarbulmasal" asarini yaratadi. Axloqiy va badiiy jihatdan olib qarasak, adibning bu asari nihoyatda qimmatli ekanligini guvohi bo'lamiz. Sababi bu asar xalq og'zaki ijodi namunalari bo'lgan, o'zida didaktik g'oya tashuvchi maqollar va masallardan iborat.

Gulxaniy hukmdorlar va ularning lagabardorlarini, saroy ahlining kirdikorlarini majoz yo'li bilan o'tkir satira ostiga oladi. Chunki u mehnatkash xalqning og'ir, mashaqqatli hayotini o'z ko'zi bilan ko'rdi, saroy bazmlari, keti uzilmas mayparastliklar, saroydagilarning xalqni talash hisobiga boyishini payqadi va bunday salbiy ishlar uni satira va masallar vositasida jamiyatdagi illatlarni fosh etishga undadi. Chunki Gulxaniy o'sha davrdagi vaziyat taqozosi bilan hukmron doiralardan noroziligini va nafratini ochiq-oydin ifodalay olmas edi. Shuning uchun o'zining majoziy shakldagi "Zarbulmasal" asarini yozishga kirishdi.

U jamiyatning holatini ertak yo'li bilan yozish mumkin ekanligini tushunadi. Shuning uchun Yapaloqqush va Boyo'g'lining bir-biriga quda bo'lishi voqeasini keltiradi. Bu ikki quda to'y bahonasida oxir oqibat mamlakatni xonavayron qiladi. Yozuvchi Ko'rqush, Hudhud, Kulonkirsulton, Sho'ranul, Malik shohim va Kordonlarning bir-birlariga aytgan masallari, hikoyalari orqali asarning g'oyaviy mazmunini ochib beradi. Asar qahramonlari bo'lgan Yapaloqqush va Boyo'g'li yuqori tabaqa vakillari. Ularning xatti-harakatlari ochko'z va qonxo'r bo'ri, aldamchi va shayton tulkilarga o'xshaydi. Bularning o'y-fikrlari, yurish-turishlari shumlikdan iborat, shahar va qishloqlarning vayron bo'lishi ular uchun bazm bayram hisoblanadi.

"Zarbulmasal" asarida keltirilgan "Maymun va Najjor" masalida Gulxaniy hunar va hunar ahlini ulug'laydi. Yozuvchi Maymun qismati orqali qo'lingdan kelmaydigan ishga urinib, kulgu bo'lma, ko'r-ko'rona bironvga taqlid qilib, falokatga yo'liqma, degan fikrni olib chiqadi. Najjor esa juda aqlli, zukko va mohir hunarmand sifatida tasvirlanadi. U foydali mehnat bilan shug'ullanishni har narsadan yuqori qo'yadi. Masal davomida Gulxaniy Najjor va uning mehnatini, duradgorlik qobiliyati va mahoratini tasvirlar ekan, hatto Maymun ham mehnatga muhabbat bilan qaray boshlaydi, hunarga va uning egasiga havas qiladi, degan fikrni olg'a suradi.

Mehnatkash xalqning og'ir hayoti, huquqsizligi va nochorligi, bir so'z bilan aytganda, ayanchli qismati asardagi "Tuya bilan bo'taloq" nomli masalda o'ziga xos tarzda ochib berilgan. Badiiy ta'sirga ega bu masalda Gulxaniyning tasvirlashicha, Tuya hayotda ezilgan, tutqun, erk-ixtiyorsiz, og'ir mehnat bandasi hamda qul qismatiga mahkum etilgan mehnatkashlarning mazojiy obrasidir. Bo'taloq esa ona sutiga ham to'yolmay, og'ir mashaqqatli hayot kechirgan, och-yalang'ochlikda, muhtojlikda yashagan erksiz mehnatkash bolalar timsolidir.

"Zarbulmasal" asaridan o'rin olgan "Toshbaqa va chayon" masalida esa Gulxaniy jamiyatdagi yuz berayotgan nohaqliklar, undagi nonko'r insonlarning xatti-harakatlarini fosh etadi. Mazkur masalda bir-biriga qarama-qarshi ikki obraz beriladi. Ulardan biri Toshbaqa obrazi bo'lib, u – aqlli, farosatli, safarlarda ko'p yurib, ancha tajriba orttirgan, insofli, sodiq va qadrdon do'st timsoli. Toshbaqa o'z hamrohi Chayonning suvdan o'ta olmasligini bilgach, unga yordam qo'lini cho'zadi. Lekin Toshbaqa Chayonning xiyonatini – "Sen bilmaysanmi Chayonning muddaosi xoh do'stning ko'ksiga, xoh dushmaning orqasiga bo'lsin, nish urishdir", degan javobini eshitgach, uni halok qiladi. Gulxaniy bu masala orqali Chayonga o'xshagan odamlar bilan do'st va hamroh bo'lmaslikka, kishini o'zini va o'z taqdirini ana shunday odamlar qo'liga topshirib qo'ymasligi kerakligiga undaydi.

Shuningdek, adib badiiy so'zning nechog'lik qudratli ekanligini, uni qadriga yetadigan kishilarga aytish kerakligini, behuda isrof qilmaslik kerakligini quyidagi qimmatli maqollar vositasida shunday ta'riflaydi:

• *"So'zni aytg'il uqqanga, jonni jonga suqqanga, so'zni aytib netarsan, onadin yomon tuqqanga"*

• *"Yaxshilar topib so'zlar, yomonlar qopib so'zlar"*

• *"Agar so'z jona paydo qilmasa so'z, ani so'z demagil, ey majlis afro'z"*

• *"Shirin-shirin so'zlasang, ilon inidan chiqar, achchiq-achchiq so'zlasang, musulmon dinidan chiqar"*

• *"Anglamay so'zlagan og'rimay o'lar, chaynamay yeganlar kavshamay o'lar"*.

"Zarbulmasal" asarida Gulxaniy maqtanchoqlik va yolg'onni qattiq qoralaydi va buni qisqa va lo'nda qilib, quyidagi maqollar bilan ifodalaydi:

• *"Bor maqtansa, topilur, yo'q maqtansa, chopilur"*

• *"Maqtangan qiz to'yda uyalar"*

• *"Yolg'on maqol turmas"*

• *"Ermon yog'ochining egilgani – singani, er yigitning uyalgani - o'lgani"*

• *"O'zini maqtag'oni - o'limning qorovuli"*

• *"Har kimning ishimas ulog' ovlamoq, madrasaga borib tuproq yalamoq"*

"Zarbulmasal" asarida Gulxaniyning insonning axloqiy sifatlariga urg'u beruvchi turli mavzulardagi quyidagi ibratomuz maqollar ham o'rin olgan:

• *"Ishonmagil do'stingga, somon tiqar po'stingga"*

• *"Oshinongdin top"*

• *"Qalb qozoni qaynamas, qaynasa ham quyulmas"*

• *"Suq toy'mas, o'g'ri boyimas"*

• *"Tanimasni siylamas"*

• *"Oz oshim, g'avg'osiz boshim"*

• *"Xayr ishiga hech ixtixora hojat emas"*

• *"Ko'pga kengash, bilganingni qil"*

• *"To'yga borsang, to'yib bor, to'rg'a to'ning kiyib bor"*

• *"Quda bo'lding, judo bo'lding"*

Mazkur asarning ustuvor g'oyalaridan biri tinchlik va musaffo osmonni qadrlash, uni asrab-avaylash g'oyasidir. Mazkur g'oyani ilgari surar ekan, Gulxaniy shunday xulosani beradi: "Qayerdagi tinchlik-totuvlik hukm sursa, o'sha yerlar bo'stonu gulistondir, qayerdagi urush va noahillik bo'lsa, u yerlar xarobayu vayronazordir".

Asarda tilga olingan tarixiy shaxslarning laqablari, qush va joy nomlari, urf-odatlar, an'analar, kishilarning moddiy hayotiga oid narsa va hodisalarning ahamiyati, xullas, tarix, etnografiya, til tarixi

nuqtai nazaridan go'yatda muhim bo'lgan qanchadan-qancha fakt va materiallar uchraydi. Bularni o'z ichiga olgan "Zarbulmasal" nafaqat tarixiy manba, balki inson ma'naviyati tarbiyasida ham muhim manba ekanligi bilan didaktik ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o'mida shuni aytish kerakki, asarda keltirilgan har bir asar, hikoya, rivoyatlarda tashbihlardan mohirona qo'llanilganligi, maqol va matallar, hajviy parchalarning o'z o'mida keltirilgani hamda nihoyatda xalqchil va sodda yozilganligi sabab "Zarbulmasal" asari kitobxonlar qalbidan chuqur joy egallab kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Gulxaniy. Zarbulmasal. Nashrga tayyorlovchi H.Yoqubov. – T.: Ma'naviyat, 2016. – 112 b.
2. Is'hoqov F. Gulxaniy "Zarbulmasal"ning ilmiy-tanqidiy matni. Avtoreferat. – T.: 1997. – 45 b.
3. Kalila va Dimna / Tarjimon: Suyima G'anieva. — T.: Yangi asr avlodi, 2017. – 304 b.

UDK 808.5

ERKIN VOHIDOV SHE'RIYATIDA QO'LLANILGAN BADIY TASVIR VOSITALARINING FUNKSIONAL-SEMANTIK XUSUSIYATLARI *R.A.Suvanova, dots., Samarqand davlat universiteti, Samarqand*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tili uslubi va nutq madaniyati masalalarini tadqiq etish va ular oldidagi dolzarb muammolarini bartaraf etish, uchun madaniyatimiz taraqqiyotini rivojlantirishda muhim omil ekanligini isbotlashga harakat qildik. Bunda sevimli shoirimiz Erkin Vohidov she'riyatidan misollar to'plab tahlil qildik. Badiiy tasvir vositalarining she'riyatda qo'llanilishi va uning vazifaviy xususiyatlarining ifodalanishiga to'xtaldik.

Kalit so'zlar: Tilshunoslik, uslubi, badiiy tasvir vositalari, metafora.

Аннотация. В данной статье мы попытались доказать, что он является важным фактором развития нашей культуры, с целью исследования вопросов методики и речевой культуры узбекского языка и устранения актуальных проблем, стоящих перед ними. Мы сосредоточили внимание на использовании средств художественного образа в поэзии и выражении его функциональных особенностей.

Ключевые слова: Языкознание, методология, средства художественного изображения, метафора.

Abstract. In this article we tried to prove that it is an important factor in the development of our culture, in order to study the issues of methodology and speech culture of the Uzbek language and eliminate the current problems facing them. We focused on the use of artistic imagery in poetry and the expression of its functional features.

Key words: Linguistics, methodology, means of artistic representation, metaphor.

Erkin Vohidov ijodi o'zining rang-barang mavzulari, janrlari, poetic shakllari, stilistik e'tibori, o'ziga xosliklari, g'oyaviy yo'nalishlari, juda boy badiiy xususiyatlari bilan xalq ichiga teran ildiz otib kirdi.

O'zbekiston xalq shoiri, she'riyatning buyuk sultoni, shoir va adib Erkin Vohidov ijodida o'zgacha mazmunli kuy yangradi. Shoir E.Vohidov 1936-yil 28-dekabrda Farg'ona viloyatining Yangiariq tumanida tavallud topgan. U 1960 yil Toshkent Davlat Universiteti filologiya fakultetini tugatgan. Uning birinchi she'riy to'plami "Tong nafasi" nomi bilan 1961 yilda chop etildi. Keyinchalik esa "Nido", "Quyosh maskani" poemalari, "Bolalik", "Oqsoqol", "Bolalik ekan-da" kabi she'riy to'plamlari nashrdan chiqdi.

Shoir Erkin Vohidov she'riyatida badiiy tasvir vositalari o'z o'rmini egallagan. Uning she'rlarida uslubi va nutqning barcha turlari mujassam. Biz badiiy tasvir vositalaridan biri **metafora**ga to'xtalamiz. Uslubi sohasini o'rganar ekanmiz tilda yaratilgan yangi asarlarda metaforaning hozirgi kundagi rivoji, badiiy matnlarda qo'llanish darajasi va uning talqini dolzarb vazifalardan biridir.

Uslubi va nutqning eng go'zal va jozibador vositalarini tavsiya etadi, me'yor qilib belgilaydi. Nutqning turli uslubi qatlamlarida badiiy tasvir vositalarini belgilab beradi. Shunga ko'ra uslubi so'z san'ati badiiy ifoda vositalari haqidagi alohida bir fan bo'lib, u haqidagi tushunchalarimizni boyib borishda yozuvchilarimizning xizmatlari kattadir.

